

OSIYO MAMLAKATLARIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI

Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna

Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiya

Institut Pedagogika va psixologiya

kafedra p.f.f.d.(PhD) dotsent

74mamuraxon@gmail.com

Nurmurodova Muslimaxon Elmurod qizi

Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiya

Institut Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: XXI- asr global raqobat davri, bugungi kunning asosi jismoniy mehnatdan ko'ra aqliy va konseptual qobiliyatga ko'proq talabgor bo'lmoqda. Inson kapitali hozirgi tuzumning eng katta strategik maqsadidir. Bu zafarli yo'lda eng ko'p yutuq va kuchga ega bo'layotgan mintaqalar sifatida Osiyoning harakatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Osiyoning kuchi uning yakdil va barqaror fenomini timsolida namoyon bo'lmoqda. Albatta har bir geografik okrug o'z identiklik va imtiyozli jihatlari bilan ajralib turadi. Biroq Osiyo qit'asi ma'lum qismlarda hamfikrlik konseptiyasiga ega. Ushbu ilmiy ko'rgazma sizga ilg'or davlatlar ta'lim modellarining o'ziga xos jihatlari va texnologik intizom, o'qituvchi meritokratiyasining ahamiyati va rivojlantirish doirasidagi fikr va tahlillarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Ta'lim konseptiyasi, Singapur modeli, Janubiy-Sharqiy Osiyo ko'nikmasi, sifatli kadrlar tayyorlash, qiyosiy pedagogika, innovatsion harakat.

Kirish

Osiyo mamlakatlarida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati, mamlakatlarning ta'lim modelini tashkillashtirish va yaratishdagi eng katta e'tibori milliy o'zlik va o'tmishdagi qadriyatlarni zamonaviy dunyo va G'arbning izchil texnologiyasi bilan yuqori darajada integratsiyalashtirganidir.

XX asrning ma'lum davrlarida dunyo xalqlari va mamlakatlari tarafidan e'tiborsiz qoldirilgan Osiyo mintaqasi XXI asrda o'z qobiliyat va samarali ta'lim tamoyillari asosida jahonning yetakchi qatorlaridan o'rin olgan. Bu so'zimizga isbot sifatida, OECDning ayniqsa so'nggi yillarda ko'rsatib keltirgan natijalarini taqdim etish mumkin. Osiyo mamlakatlari istiqbolining asosiy sabablaridan biri shonli va uzoq yillik o'tmish tajribasiga tayangan holda qad rostlab bugungi kun bilan hamnafas bo'la olgan hukumatlarning ijtimoiy ko'rsatkichlarida namoyon bo'lmoqda. Yutuq va yuqori xulosaviy natijalardagi asosiy tamoyillardan yana biri jamiyat va huquqiy qoidalar

asosida hech qanday mug'ombirlik yoki g'irromlikka yo'l qo'yilmasligini davlat normativ huquqlari darajasida tekshiruv va kuchli mas'uliyat tashkil qiladi. Ya'ni ushbu rivojlangan mamlakatalarda har qanday yo'nalish va soha ayniqsa ta'lim va salomatlik doirasida mutloq shaffoflik talab etiladi.

Asosiy qism: Singapur, Janubiy Koreya yoki uzoq sharq mamlakatlarining ijtimoiy hayot tarzi kuzatilar ekan siz kamdan kam hollarda nomunosib kadrning o'zi loyiq bo'lmagan lavozim yoki mansabga egalik qilganiga guvoh bo'lishingiz mumkin. Bu esa mamlakat aholisiga har qanday kasb yoki ilmiy jihatdan o'sishni tanlashdan avval bu sohadagi bilim va ko'nikmalarining mustahkam ekanligini tekshirishga bu yuzasidan o'tkaziladigan test sinov topshiriqlari va o'z tengdoshlari bilan munosib raqobat kuchida o'sishi uchun muhim yo'llanmadir.

Bu haqiqatlar ayniqsa Meritokratiya tizimida o'quvchi yoshlar onggiga shu darajada chuqur o'rnatiladiki, yoshlar bu masalada hech qachon qing'ir yo'nalishni tanlamaydilar. Aksincha munosib tarzda rivojlanib raqib bilan yakkama-yakka kurashish o'z bilim va salohiyatini ochiqdan ochiq oshkor etish uchun yuqori darajadagi raqobatbardosh bo'lib shaklanadilar. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur". Ushbu iqtiboslarni amaliy hayotimizga tatbiq etish va biz uchun yuklatilgan vazifalarni o'rinli bajarish maqsadida biz ko'plab tajriba va sinovlarda toblangan dunyo tizimida o'z samarasini bergan yo'llarni tanlamog'imiz darkor.

Gongkong universiteti professori Kaimeng Chen o'z konseptual qarash va nazariyalari davomida ko'pgina g'oyalarni singdirishga urinadi. U tarafidan berilgan ko'p g'oyalar xalqaro anjumanlarda muhim e'tibor bilan e'tirof etiladi. Ushbu professor o'z hamkasblari bilan tuzgan jamoaviy guruhida "Osiyo bilimi faqat yodlash va imtihonga tayyorlash bilan cheklanadi"- degan yolg'on qarashlarni parchalab tashladi. Quyidagi "Advancing 21 century competencies in East Asians education systems" deb nomlangan tadqiqotlar va hisobotlar jamlanmasida 5 ta yetakchi maskan Tayvan, Singapur, Gongkong, Yaponiya va Janubiy Koreyadagi ta'limga yo'naltirilgan harakatlar tahlil qilindi. Ekspertlar jamoasi o'z hisobotlarida tanqidiy fikrlash va muommoli vaziyatga munosib va samarali javob topish usuliga asoslangan bu tizimning barqaror ustuvorlarini arzirli bayon etib bu borada yig'gan xulosaviy fikrlarini omma ahliga taqdim etishdi. Ushbu yo'nalishdagi asosiy g'oyaga tayangan holda professor uzoq yillar davomida G'arb olimlari tomonidan qoralanib kelgan Osiyo mexanizmi va qadriyatlarini integratsiyasini oqlab beradi. Olim ayniqsa o'z tadqiqotlarida Osiyo fenomenining kuchi sifatida Konfutsiylik madaniyatining tag zamiri bo'lgan mehnatsevarlik va o'z ustida ishlash konseptsiyasi rivojlanish va tiklanish yo'lidagi eng mustahkam qadamlar degan nazariy qarashni psixologik nuqtayi

nazardan isbotladi. Asar davomida alohida e'tirof etilgan "Learning to learn" ya'ni o'rganishni o'rganish konsepsiyasi asosan Gongkong va Singapur ta'lim tajribasidan namuna sifatida qabul qilingan. Olim bu konseptual qarash orqali talaba va o'quvchilarga tayyor bilimni tiqishtirishni emas uni hatto majburiyatsiz tarzda butun hayot yo'li davomida o'rganish lozimligini tushuntirishga harakat qiladi. Ayniqsa bu kitobda dunyo xalqlari tarafidan tanqid qilingan imtihon uchungina o'qish g'oyasini yig'ishtirib bu sindromdan xalos bo'lish lozimligi, bilim faqat qisqa muddatli xotira yordami bilan ma'lum vaqtgina eslanib qolmasligini, aksincha uning vazifasi katta hayotda sermahsul natija uchun ong ostida muhrlanishi uchun yordam beradigan strategik yondashuv turlarini taklif etadi.

Ushbu mamlakatlar tajribasidagi yuqori natijalarni andoza sifati qabul qilar ekanmiz bu jarayonni xalqmiz va milliy mintalitetimizga bo'lgan moslashuvchanligini ham hisobga olishimiz darkor. **Muaommoli ta'lim** ya'ni **Problem based-learning** modeli Singapur tizimiga asoslangan bo'lib bu jarayonda muommoning yechimi ta'lim oluvchining ixtiyoriga to'la qonli topshiriladi. Bu mavzuni yanada samarali o'tkazish uchun jamoa va guruh yakdilligidan foydalaniladi. Bu yerda nafaqat bilimlar balki kelgusida ilmiy o'sishi va kasbiy barqarorligi yo'lida asqotuvchi ilmlar bilangina cheklanib qolmay, jamiyat va davlat uchun manfaatli shaxsni shakllantirgan bo'lishimiz darkordir.

Yaponiya ta'lim jarayonining bog'ini bo'lgan **Tokkatsu** ya'ni xulq va jamoaviy mas'uliyat tushunchalari o'qituvchilar jamoasi uchun birgalikda bitta yoki ko'pgina dasturlarni rejalashtirishidarsdan tashqari vaqtda esa tozalik va pokizalik sifatlarini oshirish maqsadida o'tkaziladigam majburiy ozodalik soatlari jamoaning ijtimoiy hayotiga aralashuvi bilan shaxsning mas'uliyatli qarorlarini mustahkamlashga o'rgatilinadi. Chet el ta'limidan andoza qilib olingan bu metodik usullar maktab hayotini isloh qilish uchun ilk qadam bo'lishi mumkinligi bayon etiladi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar:

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surishim mumkin:

- STEAM dasturi har bir ta'lim dargohida fan nomzodlari va ilm egalarining ongida chambarchas bog'langan va hayotiy vaziyatlarda muhim rolga ega yo'nalgan bo'lishi darkor.
- Baholash tizimini transformatsiya qilishda Janubiy Koreya va Yaponiyadan andoza olgan holda faqat yakuniy xulosa bilan cheklanmasdan o'quvchining yil davomidagi ijodiy loyiha, harakat va tadqiqotlarini o'rinli baholash darkor.
- Sharqiy Osiyo mamlakatlarida bo'lgani kabi ustoz maqomi, kasbiy nufuzi va ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini yanada mustahkamlash o'quvchi yoshlar ongida bu kasbning obro' va ahamiyatini qiymat va qadrini yuksaltirish

ta'limning tarbiyadan uzulmasdan insoniylik jihatidan ham ulug'vor ko'rinish namoyish etishi uchun imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.insonhuquqlari.uz <http://insonhuquqlari.uz>
- 2.The University of Hong Kong (HKU) <https://www4.hku.hk>
- 3.OpenEdition Journals <https://journals.openedition.org>
- 4.Asia Society <https://asiasociety.org>
Advancing 21st Century Competencies in East Asian Education Systems

